

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“HALQ IJODIYOTI” FAKULTETI
“IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT” YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

**“INSONLARARO MUNOSABATLAR MULOQOT MADANIYATI”
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” kafedrasining _____ -
sonli yig‘ilish bayonnomasi

“ _____ ” _____ 2013 yil

Kafedra mudiri _____
X.Shodiyev

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat”
ta’lim yo‘nalishi 4-kurs bitiruvchisi
Berdiyeva Sayram

Ilmiy raxbar: tarix fanlari nomzodi
dotsent
I. Saidaxmedov _____

Toshkent-2014

MUNDARIJA:

Kirish: 3

I-BOB. MULOQOT MADANIYATINING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

1.1 Muloqot madaniyatining shakllanish bosqichlari 6

1.2 Sharq mutafakkirlarining muloqot madaniyati borasidagi qarashlari..... 12

II-BOB. MULOQOT MADANIYATIDA SHARQONA ODOB VA TAVOZENING O‘RNI

2.1 Kishilararo munosabat va muomalaning shaxs madaniy shakllanishiga ta’siri 20

2.2 Oila muomala odobi va o‘zaro munosabatlar tarkib topishining omili sifatida 31

Xulosa 50

Adabiyotlar ro‘yxati 55

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirda milliy ta'lim – tarbiya tizimida yoshlarning muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ota – bobolarimiz azal – azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Ular ta'lim – tarbiyadagi miliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan. Mustaqillik yillariga qadar ularning pand – nasihatlari o'g'itlari yetarli darajada o'rganilmagan. Tarixdan ma'lumki sharqda yoshlar muomalasini tarbiyalash jarayonida ibrat omili orqali ta'sir qilishga alohida zarurat sifatida qarashgan. Bu zarurat har bir shaxsni tarbiyalashda uning individual psixologik xususiyatlarini, inobatga olishni taqozo etadi.

Bobokalonlarimiz yosh avlod tarbiyasi borasida dorulfunun yaratib qoldirganlar.

O'zbekiston Respublikasi rivojlanish yo'lidan sobitqadamlik bilan borar ekan, jahon hamjamiyatida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lmoqda. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri madaniyatli va ma'naviyatli, zukko, ilm va mehnatga intiluvchan, muloqot borasida madaniyatli yoshlarni kamolotga yetkazishdir. Shunday ekan ta'lim – tarbiya tizimida shaxslararo munosabat va muloqat madaniyatini pedagogik jihatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim – tarbiya va mehnat faoliyati jarayonida muomala va muloqot odobiga ega bo'lish o'ta ahamiyatlidir.

Ma'lumki, ta'lim va tarbiya bir – biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, eng avvalo yoshlarning muomala odobiga, muloqot madaniyatiga e'tibor qaratgan. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib shakllantirish bosh maqsad qilib belgilangan. Bu ta'lim – tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi va shu faollik orqali amalga oshiriladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida yosh avlodni istiqlool mafkurasi ruhida tarbiyalash, yoshlarimizga o'rnak bo'lish, milliy ta'lim – tarbiya an'analariiga asoslanib tarbiyaviy ishlarni olib borish masalasi ko'tarilgan [24.-B.-3].

Donishmandlarning ta'kidlashicha, ta'lim va tarbiya masalasi yoshlarning iroda, hulq-odatlari va ko'nikmalari, eng asosiysi muomala madaniyatini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Yoshlarning muomala va o'zaro munosabat madaniyatini shakllantirishdan ilk navbatda axloqiy xatti-harakat hosil bo'ladi. Yoshlarning axloqiy xatti – harakati, iste'dodi, o'ziga xos individual psixologik xususiyatlarini namoyon bo'lishi ham muomala va munosabat madaniyati bilan bog'liq. Shunday ekan, yoshlarning munosabat va muloqot madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Yoshlarning munosabat va muloqot madaniyatini shakllantirish masalasi, ayniqsa uni milliy g'oyasi asosida o'rganish, katta avlodning yoshlarga o'rnak bo'lishi borasidagi tarbiya masalalari vatandosh olimlarimiz Al –Buxoriy, At-Termiziy, Beruniy, Az-Zamahshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abdulla Avloniy singari ulug' olimu-adiblar, fozilu – fuzalolarning asarlarida, hamda zamondosh olimlarimizdan M.Mutalipova, M.Mahkamova, S.Jalilovalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot obyekti: Yoshlarning munosabat va muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Yoshlarning munosabat va muloqot madaniyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni pedagogik jihatlarining mazmuni, shakli, vosita va metodlari.

Tadqiqot maqsadi: Yoshlarning munosabat va muloqot madaniyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni pedagogik – psixologik jihatlarini o'rganish va tadbiq qilish.

Tadqiqot vazifasi: Tadqiqot mavzusiga doir tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish;

Tadqiqotning metodologik asosi:

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi;

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan Davlat dasturlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutq va ma'ruzalari, asarlari.

Tadqiqotning metodlari: Bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritishda pedagogik va psixologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, og'zaki savol-javoblar o'tkaziladi, kuzatuv metodlardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy – amaliy ahamiyati: Yoshlarning munosabat va muloqot madaniyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish jarayonida ta'lim va tarbiya asoslarining ta'sirini kuchaytirish.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: - Kirish, 2 bob, 4 bo'lim, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. MULOQOT MADANIYATINING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

1.1 Muloqot madaniyatining shakllanish bosqichlari

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga

kirishish jarayonidir. YA'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki, har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda uch xil bosqich mavjud.

Dastlabki ya'ni **birinchi bosqich** — **odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir**. Psixolog T.Shibutanining "Ijtimoiy psixologiya" darsligida: - "Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi" [13. -B. - 46]. — deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, **boshqalar bilan muloqot**— muloqotning **ikkinchi bosqichidir**.

A. N. Leontyev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning **uchinchi bosqichi**—**avlodlar o'rtasidagi muloqotning** ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi» [14. - B. - 127]. Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab

keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

Muloqotning hayotimizdagi shakl va ko'rinishlariga kelsak uning har bir shaxsning hayotiy vaziyatlarga mos keladigan, o'sha vaziyatlardan kelib chiqadigan ko'rinishlari va turlari haqida gapirish mumkin. Lekin umumiy holda har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi.

Rasmiy muloqot - odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va hokazolar.

Norasmiy muloqot - bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat – maqsadlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatdoshi, poyezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari va hokazolar. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatlari kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki, buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasida xabardorlik talab qilinadi.

Muloqot madaniyati mavzusi yo'nalishiga ko'ra, uning:

- *ijtimoiy yo'naltirilgan* (keng jamoatchilikka qaratilgan va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadigan muloqot);
- *guruhdagi predmetga yo'naltirilgan* (o'zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish mobaynidagi muloqot — mehnat, ta'lim jarayonidagi yoki konkret topshiriqni bajarish jarayonida guruh a'zolarining muloqoti);

- *shaxsiy muloqot* (bir shaxsning boshqa shaxs bilan o'z muammolarini ochish maqsadida o'rnatgan munosabatlari);
- *pedagogik muloqot* (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro ta'sir jarayoni) turlari farqlanadi.

Muloqotning turi va shakllanish bosqichlari turlichadir. Masalan, bu faoliyat:

- bevosita «*yuzma - yuz*» bo'lishi yoki u yoki bu *texnik vositalar* (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan;
- biror professional faoliyat jarayonidagi *amaliy* yoki *do'stona* bo'lishi;
- *subyekt - subyekt* tipli (dialogik, sheriklik) yoki *subyekt - obyektli* (monologik) bo'lishi mumkin.

Muloqotning kommunikativ tomoni - ma'lumotlar almashinuv jarayonidir.

Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib **til** xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari va hokazolarni bir-birlariga yetkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi **dialogik** va **monologik** turlarga bo'linadi.

*Dialogik nutq*ning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, hissiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi.

Monologik nutq esa bir kishining boshqa kishiga yoki kishilar guruhiga nisbatan murojaati bo'lib, uning psixologik tuzilishi, fikrlarning mantiqan tugal bo'lishi, gapirayotgan paytda grammatik qonun-qoidalarga rioya qilish kerakligi kabi shartlari mavjud. Masalan, ma'ruzaga tayyorlanayotgan talaba tayyorgarlik paytidan boshlab, ma'ruza qilib bo'lgunga qadar, qator ichki ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradi, unga ko'p kuch va vaqt sarflaydi. Dialogik nutqqa nisbatan bu

nutq turi murakkabroq hisoblanadi. Til vositasida olib boriladigan muloqot *verbal*, ya'ni so'zli deyiladi.

Muloqotning quyidagi ta'sir vositalari mavjud:

- **verbal ta'sir vositalari;**
- **noverbal ta'sir vositalari;**
- **paralingvistik ta'sir vositalari.**

Odamlar muloqot jarayonida so'zlardan tashqari, ya'ni verbal vositalardan tashqari turli xil harakatlardan, qiliqlardan holatlardan, kulgu, ohanglar va boshqalardan ham foydalanadilar. Qiliqlar, mimika, ohanglar, to'xtashlar (pauza), hissiy holatlar, kulgu, yig'i, ko'z qarashlar, yuz ifodalari va boshqalar o'zaro muloqotning nutqsiz vositalari bo'lib, ular muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, uni to'ldiradi, ba'zan esa nutqli muloqotning o'rnini bosadi, bunday vositalarni *noverbal* vositalar deyiladi.

Buyuk rus yozuvchisi L. Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko'z qarashlari turi borligini kuzatgan. G. M. Andreyevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarning 2000 ga yaqin ko'rinishlari bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko'zlar to'qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatishi maxsus tadqiqotlar jarayonida o'rganilgan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo'lishini ta'minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi. Muloqotning noverbal vositalarining milliy hamda xududiy xususiyatlari borligini ham alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. Masalan, o'zbek xalqining muloqot jarayoni boy, o'zaro munosabatlarining bevosita xarakteri unda shunday vositalarning ko'proq ishlatilishi bilan bog'liq. Bolalarning o'z yig'isi bilan onasiga o'z his-kechinmalari hamda xohishlarini bildirishlari ham bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq. Boshqa millatlar madaniyatiga nazar tashlanadigan bo'lsa, ularda ham ba'zi bir muloqot vositalarining turli millatlarda turli maqsadlarda ishlatilishining guvohi bo'lish mumkin. Misol uchun, Bolgar millatiga mansub insonlar agar biron narsa bo'yicha fikrni tasdiqlamoqchi bo'lishsa, boshlarini u yoq-bu yoqqa chayqashar,

inkor qilishmoqchi bo'lsa, aksincha, bosh siltashar ekan. Ma'lumki, o'zbeklar, ruslar va bir qator boshqa millatlarda buning aksini bajaradilar.

Noverbal muloqotda suhbatdoshlarning fazoviy joylashuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ayollar ko'proq hissiyotlarga boy bo'lganliklari sababli, suhbatlashayotganlarida bir-birlariga yaqin turib gaplashadilar, erkaklar o'rtasida esa doimo fazoviy masofa bo'ladi. Olimlarning aniqlashlaricha, bolalarni odatdagiday orqama-ketin o'tqazib o'qitgandan ko'ra, ularni yuzma-yuz o'tkazib davra qurib o'qitgan ma'qul. Chunki, bunday sharoitda o'quvchilarda ham javobgarlik hissi yuqoriroq bo'ladi, hamda emotsiyalar almashinishgani uchun ham guruhdagi psixologik vaziyat ijobiy bo'lib, bolalarning predmetga va bir-birlariga munosabatlari ancha ijobiy tomonga o'zgradi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muloqotning barcha vositalariga, ayniqsa, nutqqa e'tibor berish kerak. Bolalarni ilk yoshlik chog'laridanoq muloqot madaniyatiga o'rgatish, nutqlarini o'stirish choralarini ko'rish zarur. Pedagog esa shunday nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerakki, u avvalo uning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni ta'minlasin, qolaversa, bolalarda nutqning o'sishiga imkoniyat bersin.

Yuqorida qayd etilgan muloqotga ta'sir vositalaridan tashqari muloqotning interaktiv tomonlari ham mavjud:

Muloqotning bu xususiyati kishilarning muloqot jarayonida birgalikdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan bevosita ta'sir etishlarinn ta'minlaydi. Shu tufayli odamlar hamkorlikda ishlash, bir-birlariga yordam berish, bir-birlaridan o'rganish, harakatlar muvofiqligiga erishish kabi qator qobiliyatlarini namoyon

etishlari mumkin. Shu tufayli o'qituvchi bola shaxsiga maqsadga yo'nalgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aslini olganda, har qanday muloqot, agar u bema'ni, maqsadsiz, quruq gaplardan iborat bo'lmasa, doimo muloqotga kirishuvchilarning xulq-atvorlarini, ularning ustanovkalarini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

1.2 Sharq mutafakkirlarining muloqot madaniyati borasidagi qarashlari

Sharq mutafakkirlarining muloqot madaniyati borasidagi qarashlari asrlar o'tsada o'z mohiyatini yo'qotgani yo'q, balki yanada qimmatli ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, bu borada islom olamining yirik fikhshunosi, vatandoshimiz Burxoniddin Marg'inoniyning "al-Hidoya" asari katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar hanafiya mazhabining asosiy huquqiy asari bo'lib, unda islom nuqtai nazariga ko'ra muomalada qo'pollik, axloqsizlik, muloqotdagi nuqsonlar chuqur tahlil qilib berilgan. [9.-B.72.]

Axloq ilmida va umuman ijtimoiy fanlarda ham, tabiiy fanlarda ham chuqur iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizdan yana biri, Abu Rayhon Beruniydir. Beruniy asarlaridan bizgacha qo'lyozma holida yetib kelganlari 40 ta bo'lib, axloq va hulq-atvor, muloqot va munosabat masalalari xalqlarning urf-odatlarini bir-birlari bilan taqqoslash orqali "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va hind xalqiga xos bo'lgan etnik xususiyatlarni tahlil qilish orqali " Hindiston" asarlarida kengroq yoritilgan. [10.B.-236.]

Sharqning yana bir faylasufi Ibn Sinoning ahloqiy qarashlari asosan " Axloq ilmiga doir risola", " Burch to'g'risida risola", " Nafsnı pokiza tutish to'g'risida risola", "Adolat haqida kitob", "Turar joylardagi tadbirlar" singari ko'rplab asarlarida o'z aksini topgan. Alloma o'z asarlarida bir qancha ahloqiy fazilatlarga ta'rif beradi. Masalan, iffat, hikmat, shijoat, adolat, sahiylik, qanoat, qat'iyat, sadoqat, hayo, kamtarlik, chiroyli muomala va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, Ibn Sino ularning aksi bo'lgan muomalada meyordan og'uvchi holatlar, aldamchilik, fisqu-fasod, nafrat, rashk, adovat, bo'xton, irodasizlik, takabburlik, nodonlik kabi illatlarni ham tavsiflaydi. Har ikki turdagi bu tushunchalarni bir-biri bilan bog'liqligini, bir-biriga o'tib turishini va bunday bog'lanish ijobiy hol ekanini ta'kidlaydi. Demak, ilm-fanda faqat fazilatlar emas, balki illatlar ham o'rganilishi zarur. Ayni paytda Ibn Sino ustozlari an'analarini davom ettirib, har bir axloqiy fazilat ikki nuqson oralig'i bo'ladi, ya'ni o'rtalik xususiyatiga ega deydi.

Yana bir pedagogikamizda muhim o‘rin tutuvchi asarlardan Yusuf Xos Hojibning “ Qutadg‘u biling”(Saodatga yo‘llovchi bilimlar) asaridir.

Mazkur asarda Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq-atvoriga nisbatan o‘ziga xos yondashuvni kuzatish mumkin. YA’ni uning bildirishicha, yaxshi xulq ham, yomon xulq ham, ikki xil bo‘lishi mumkin: tug‘ma va ijtimoiy muhit natijasida shakllangan xulqdir. Ushbu asarda esa, alloma tomonidan ushbu ikki qarama-qarshi yondashuvlarni birlashtirish holatlarini kuzatishimiz mumkin.

Turkiston ma’rifatparvarvarlari orasidagi yana bir mutaffakkir-pedagog Abdulla Avloniydir. Uning XX asr bosharida Turkistonda mashhur bo‘lgan “Turkiy gulston yohud axloq” (1913) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtai-nazaridan yondashishi bilan ajralib turadi. U fazilatlarni yaxshi xulqlar, illatlarni esa yomon xulqlar deb atagan.

Abdulla Avloniy bilan bir xil fikr va bir xil maslakda bo‘lgan Abdurauf Fitrat ham muloqot va munosabatdagi buzilishlarning sabablarini axloqiy tarbiyadan izlar ekan, bu borada oilaviy tarbiyaning o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatib o‘tadi: “Oiladagi eng og‘ir vazifa bola tug‘ilganidan keyin farzand tarbiyasidir” deb ta’kidlaydi.

Muloqot va munosabat borasidagi axloqiy tarbiyani chuqur o‘rganib, Abdurauf Fitrat shunday deb yozadi: “Axloqiy tarbiya- odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham, foyda va manfaat keltiradigan bo‘lsin”. [11.B.-55.]

Mustaqil O‘zbekistonimizda har qanday mafkuraviy va g‘oyaviy to‘siqlarning olib tashlanganligi va barcha soha olimlariga to‘la ijodiy erkinlik berilganligi respublikamizda muloqot va munosabatning barcha turlarini ilmiy o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu davrda respublika yosh olimlari E.Yusupov, X.Shayxova, Q.Nazarov, N.Komilov, M.Xolmatova, M.Imomnazarovlar shaxs tarbiyasida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalarini hamda muomala va axloqiy tarbiya masalalarini[12.-B. 53.], professor M.Bekmurodov shaxs axloqini shakllantirishda hamda axloqiy buzulishlarni oldini olishda jamoatchilik fikrining tutgan o‘rni masalalarini, huquqshunoslar O.Oqilov, A. Qulahmedov,

M.UUsmonaliyev, R.A.Turdiyevlar muloqot va munosabatning buzilishi natijasidagi o'smirlar jinoyatchiligi masalalarini ilmiy o'rganishdi. [13. -B. 34.]

Shaxsning muloqot madaniyati, oilada va jamiyatda ma'naviy-axloqiy barkamol shaxsni tarbiyalashdek dolzarb mummolariga o'z etiborlarini qaratgan pedagog olimlarimiz O.Musurmonova, D.J.Sharipov, D.R.Xoliqov, M.Ingomova, A.K.Munavvarovalarning olib borgan ilmiy ishlari ham e'tiborga molikdir. Xususan, olim O.Musurmonovanning ta'kidlashicha, "Oilada hukm suradigan sog'lom ma'naviy muhit va sog'lom turmush tarzi yoshlar o'rtasida paydo bo'ladigan ichuvchilik, kashandalik, giyohvandlik, jinoyatchilik, turli jinoiy guruhlar va diniy ekstremislarning ta'siriga tushib qolishdan saqlaydi". [14. № 3-4. -B.28.]

Bola ota-onasi huzuridagi omonat bo'lib, uning qalbi pokiza gavhardir. U har qanday naqshni qabul qilaveradi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, o'shanday o'sadi. Uning savobiga ota-onasi va murabbiysi sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka o'rgatilsa, o'shanday o'sadi. Uning gunohi valiysiga bo'ladi. Valiy uni saqlashi, ta'lim-tarbiya bermog'i lozim. Unga yaxshi axloqlarni o'rgatsin. Uni yomon bololardan saqlasin.

Ota-ona bolani kichikligidan, umrining avvalgi kunlaridan ehtiyotkorlik bilan kuzatib borishi kerak. Vaqti kelganda maktabga berib, Qur'on, hadis va yaxshilarning qissalarini ta'lim berish boshlanadi. Shu tariqa uning qalbiga ahli solihlarning muhabbati solinadi. Shundagina farzand komil inson va jamiyatga nafi tegadigan barkamol shaxs bo'lib yetishishi kafolatlanadi va ota-onasining faxri bo'ladi.

Bolada yaxshi xulq va maqtovga sazovor ish sodir bo'lsa, uni taqdirlash va xursand bo'ladigan narsa bilan mukofotlash hamda odamlar huzurida maqtash lozim. Ba'zi hollarda mazkur ishlarga xilof narsani sodir qilsa, o'zini bilmaganga solib, uning aybini oshkor qilmaslik kerak. Agar o'sha ish yana takrorlansa, hech kimga bildirmay jazolash va odamlar bilib qolsa uyat qilishlarini uqtirgan yaxshi. Ammo jazo ko'paytirib yuborilmasin. Chunki, bu narsa bolaning betini qotirib

qo'yadi. Keyin uyalmay har narsani qilishga odatlanib qoladi. Ota bolasi huzurida o'z haybatini saqlab turishi kerak. Ona bolasini otasi ila ogohlantirib tursin.

Bola yetti yoshga yetganda maktabga chiqadi. Uni yolg'on va hiyonatga yaqin kelmaslikka odatlantiriladi. O'smirlik chog'i yaqinlashganda undan o'sha paytda kerak bo'ladigan narsalar talab qilinadi.[15. -B. 214.]

Ota-onani hurmatlash, e'zozlash masalasida hech bir tuzum yoki tarbiya vositasi Islomga teng ham, yaqin ham kela olmaydi. Islom farzandlar zimmasida ota-onalarning bir qancha haq-huquqlari borligini ta'kidlaydi. Bu masalada Qur'oni Karimda, sunnati nabaviyada va Islom tarbiyasi haqidagi kitoblarda alohida bayon qilingan.

Islomda farzandlarning huquqlari rioya qilingan bo'lib, bular ularning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari, yashayotgan jamiyatlariga vazifa qilib yuklatilgan. Bu haqlarni ado etish vojib bo'lib, unga amal qilmoqlik majburiydir" [16. -B.317].

"O'rta Osiyoda avvalo O'zbekistonda mahalla kabi o'z-o'zini boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mavjud bo'lgan va shu kungacha ham saqlanib qolgan. O'zbeklar uchun mahalla jamoa tushunchasidan ko'ra ko'proq ma'noni bildiradi. Mahalla tufayli tub aholi ijtimoiy va iqtisodiy hatti-harakatni tarkib topishi, ijtimoiy qadriyatlar hurmat qilinishi, o'zaro munosabot odobi tamoyillarining alohida qoidalari saqlanib qoldi. Bu esa jamiyat oldidagi majburiyat va zimmadagi ma'suliyat so'zsiz bajarilishining kafolatidir. Mahalla ruhi respublikamizda yashovchi har bir kishi diliga singib ketgan" [5. -B.271.]

Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda bolaning bo'sh vaqti masalasi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Maktabdan keyingi yarim kunda bolaning nima bilan shug'ullanishi uning taqdirini belgilaydi. Shahardagi mahallalarda, qishloqlarda bola kattalarning e'tiborida bo'ladi bu bola kimning farzandi ekanini kattalar bilishadi va undagi nojo'ya xatti-harakatlarini e'tiborsiz qoldirishmaydi. Ko'p qavatli uylarda esa buni aksidir. Qo'shnilar bir-birlarini tanimaydilar. Nojo'ya ish qilayotgan bolani tartibga chaqirmaydilar. Shundanmi, qamoqdagi

bolalar yashash joylariga ajratilib o'rganilganida mahalla va qishloqqa nisbatan ko'p qavatli uylarda yashovchi bolalar ko'p ekanligi aniqlangan.

Ayrim ota-onalar farzandlarini birorta hunar egasiga shogirdlikka beradilar. Bolalikdan ustaning yonida yurganlarning ham ko'zi pishadi, ham qo'li o'rganadi, muomala odobi shakllanadi. Oqibatda ular mohir usta bo'lib yetishadilar. Eng muhimi, bekorchilikdan ko'chaga sang'ib, nomaqbul munosabatlardan saqlanadilar. Afsuski, ustalar ko'p emas, bekorchi bolalarning barchasini o'z qanotlari ostiga ololmaydilar. Bu o'rinda davlat bolalarning bo'sh vaqtlari xususida aniq tadbirlarni belgilab bermog'i lozim. Xalq maorifi tizimida "qo'shimcha ta'lim markaz"lari mavjud. Bu markazlarda turli xil hunarlar o'rgatiladi. Lekin bu markazlarga yaqin atrofdagi maktab o'quvchilari qatnaydi. Uzoqroqdagi maktablarning o'quvchilarin ota-onalari yubormaydilar. Undan tashqari mazkur to'garaklarga, asosan, 13-14 yoshgacha bo'lgan bolalar qatnaydi. O'smir yoshdagilar uchun esa shug'ullanadigan yumush yana yo'q. Ularning eng sevimli mashg'uloti o'rtoqlar davrasida ko'cha tiladi latifa aytish. Bu holat o'z o'zidan yoshlarni muomala madaniyatidan chetlashtiradi.

Hali bevoshlik ko'chasiga o'tmaganlarni to'g'ri yo'lga yo'llash bir masala bo'lsa, bu ko'chaga o'rgana boshlaganlarni qaytarish o'n karra og'irroq masaladir. Chunki, buzilmagan bolalarni o'sha to'garaklarda ko'rishimiz mumkin. Biroq, izdan chiqqanlarni u yerda uchratish amri mahol. Ularni faqat voyaga yetmaganlar bilan shug'ullanuvchi nazoratchi ro'yxatidagina ko'ramiz. O'rganilgan joylarda militsiya nazoratchisi ro'yxatida turuvchi o'smirlarning 36% gina turli to'garaklarga qatnar ekanlar. 10.3% bir oz shug'ullanib, so'ng ko'ngli sovub, tashlab ketgan, 19% o'smirda shug'ullanishga umuman qiziqish yo'q, taklif etilgan to'garaklarning birortasiga bormagan. 17.3% o'smir esa to'garak deyilsa narigi mahalladan aylanib o'tadigan bo'lishgan. Albatta bu raqamlar ma'lum bir joyga xos, barcha yerlar uchun umumiy emas. Raqamlardagi ozgina farqni aytmamak, hamma yerda bir ahvol. "Nega shunday?" degan savol tug'ilishi tabiiy. Quyida keltirilgan muammolarga diqqatimizni jalb qilamiz:

1. O‘smirga ”shaxmat-shashka to‘garagiga kel”, deb taklif qilsangiz sizni mazax qilib kuladi. O‘smirlarni o‘ziga jalb qila oladigan muassasalarimiz juda oz.

2. Qamalib chiqqan o‘smir shu to‘garakka kelsa ham qabul qilmaslikka urinamiz. Chunki u, boshqalarni ham buzib yuboradi, deb hisoblaymiz. “Ehtiyot-shart!”-bizning shiorimiz shunday, to‘g‘ri emasmi?

3. O‘smirlarni qiziqtirish mumkin bo‘lgan to‘garaklar oz ekani bir masala, ularning asosan shahar markazida ekani ikkinchi masala. Ayrimlarining pullik ekani yana bir masalalardan biridir.

Oilalardagi bolalarning bo‘sh vaqtidan unumli foydalanish haqida gap, eng avvalo, ularni jismoniy tarbiya-sportga tortish fikri eng samaralidir. Men bu fikrni inkor etmayman, chunki o‘smir yoshlarning barchasi turli xil sport turlariga qiziqishlari mavjudligi barchamizga ma’lum. Bundan tashqari ruhiy salomatlik jismoniy salomatlikni ham talab etadi. Sport bilan shug‘ullanuvchi o‘smirlar bilan o‘tkazilgan suhbatlarda ularning 80%i sport hayotlari uchun muhim ekanligini aytishgan. 20% o‘smir esa hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda sport katta yordam berganini ta’kidlashgan.

Abdulla Avloniy hazratlari badan tarbiyasiga e’tiborlarini qaratib, shunday fikr bildirgan ekanlar: “Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jismi ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yib astarini yuvib ovora bo‘lmoq kabidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur. Imom Shofe’i hazratlari: “Ilm ikki xildur: biri-badan ilmi, ikkinchisi din ilmi”, - demishlar. Bunga qaraganda eng avval hifzi sihat qoidalarini bilmak, salomatlikka ters bo‘lgan narsalardan saqlanmak ila bo‘ladur.”

Sportning har bir kishi uchun koni foyda ekani haqida ko‘p gapirmasak ham bo‘ladi. Ammo ayni shu sohada ham jiddiy muammolarga duch kelmoqdamiz. Bola ma’lum bir sport turiga qiziqib yoki akasimi, do‘stigami ergashib to‘garakka borsa, trener eng avvalo uning qobilyatini sinab ko‘radi. Agar layoqat sezilmasa

trener undan osongina qutulib qo‘ya qoladi. Natijada o‘smir yana bekorchi. Undagi sharqona muomala va munosabat yana ko‘chada shakllanadi.

Bizda sport ishlariga tobora ko‘p e‘tibor berilmoqda. Sportchilarimiz jahonda o‘zlarini ko‘rsatishyapti. Har bir mahallada sport maydoni bo‘lishi kerak, degan talab bor. Talab yaxshi, lekin mahallada bo‘sh joy yo‘q-ku? Ko‘p qavatli uylar shu darajada zich qurilgan-ki, ozgina bo‘sh joy ham garajlar bilan band. Endigina ayrim joylardagi garajlar olib tashlanayapdi. Hokimiyatlarga kelgan ma‘lumotlarga qaraganda bu talablar barcha yerda bajarilgan. Bu ma‘lumotlarni ko‘rib ajablanamiz: sport maydonchalari qayerda, tomlar ustidami? Toshkent shahridagi mahallalarda o‘tkazilgan so‘rovnomalardan ma‘lum bo‘lishicha, maktab muallimalarining 65-70% i, onalarning 80%i, otalarning 60%i bolalar bo‘sh vaqtlarini shaharning qayerida, qay muassasasida foydali ravishda o‘tkazishlari mumkin ekanligini bilishmas ekan.

Tarbiyaga mas‘ul odamlar o‘ylab o‘ylariga yetgunlaricha har tomondan turli mafkura oqimlari yopirilib kelmoqda. Kattalar tayin bir gap aytolmagach, o‘smirlar o‘zlaricha yashashga intilyaptilar. Hozir ularning diqqatini jalb etadigan muassasalar ko‘paymoqda. Shulardan biri videobarlar bo‘lsa, yana biri diskotekalardir. Bunday oromgohlar albatta yoshlarning xulq odobi ila ularning muomala madaniyatini yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Ota-ona ham, maktab ham, xullas, o‘smirning atrofidagi barcha undan yaxshi o‘qishni, mehnatkash bo‘lishni talab qiladi-yu, uning to‘g‘ri dam olishi bilan hamma ham qiziqavermaydi. Undan tashqari bolaning yoshi ulg‘aygan sari u ham jismonan, ham ma‘nan shakllanib boradi. Uning bo‘sh vaqtiga mos dam olishni tashkil etish esa qiyinlashadi. O‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalarning 43.4%ni bo‘sh vaqtdan unumli foydalanishga jalb etish mumkin ekan.

Ushbu bo‘limdan xulosa shuki, yoshlarni muomala va munosabat jihatdan tarbiyalashning shakl va usullari har xil bo‘lgani bilan maqsadi bitta. U ham bo‘lsa-yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, muomala va munosabat tushunchalarini tushuntirishdan iborat. Xuddi ana shunday tuyg‘ugina komil inson tarbiyasida katta

o‘rin tutadi. Zero, komil inson g‘oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma’naviyatida uzviy bir qism bo‘lib keladi.

II-BOB. MULOQOT MADANIYATIDA SHARQONA ODOB VA TAVOZENING O'RNI

2.1 Kishilararo munosabat va muomalaning shaxs madaniy shakllanishiga ta'siri

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro *bir - birini tushunishlarini* ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning **ikkinchi** muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok,

tafakkur, xotira, hissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'ladi. Masalan, tadqiqotchi olim M.Sifr o'zining ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan yerda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshiradi, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnoma asosida bir - birini yoqtirgan hamda bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va kishilararo munosabatda sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi

yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqat texnikasi mehnat unumdorligi xamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

O'smir yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda atrof-muhit, xususan oila, mahalla va maktab jamoalarining o'rni kattadir. Chunki, O'zbekiston kabi an'anaviy jamiyatda umumjamoa a'zolari axloqiy qarashlar va ushbu qarashlar asosida shakllangan jamoatchilik fikri orqali ushbu jamoaning har bir a'zosini axloqan shakllantiradi va boshqaradi. "Biz butun tarix davomida jamoa bo'lib yashab kelganmiz. Ba'zi g'arb mamlakatlarida esa yakka yashashga intilish kuchli. Bu bizning respublikamiz uchun mos emas... Amerikada shaxs demokratiyasi ustuvor bo'lsa, bizda boshqacha meyorlar asosida, ya'ni jamoat manfaatlariga mos yashash ustundir" [4. -B.1.].

Darhaqiqat, Yurtboshimizning ushbu so'zlarida chuqur ma'no va haqiqat ruhi ufurib turibdi. Ularni yurtimiz kelajagini o'ylab amalga oshirayotgan ishlari taxsinga loyiqdir. Biz yoshlar ham yurtimizga loyiq bo'lishga, uni gullab yashnashga xissa qo'shishga harakat qilmog'imiz darkor. Buning uchun kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalamog'imiz va ularni jamiyatga xissa qo'shuvchi shaxslar etib yetishtirmog'imiz muhim va shartdir.

Shu sabab, biz bugungi kunda o'smirlarimizning atrofdagilar bilan munosabatlari va ushbu aloqalardagi salbiy holatlarning ta'sirini o'rganishga harakat qildek. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda kishilararo munosabat va muomalaning shaxs madaniy shakllanishiga ta'sirini qisman o'rgandek.

Jamiyatda odamlarning turli sharoitlarda o'zlarini tutishlari, xulq-atvorlarining boshqarilishi ma'lum psixologik qonuniyatlarga bog'liqligini ko'rish mumkin. Bunga sabab jamiyatda qabul qilingan turli normalar, qonun-qoidalaridir. Chunki, o'zaro muloqot va o'zaro ta'sir jarayonlarida shunday hatti-harakatlar obrazlari kishilar ongiga singib boradiki, ularni har bir kishi norma sifatida qabul qiladi. Masalan, o'smir bola, umuman yoshlar jamoat joylarida kattalarga o'rin bo'shatib berishlari kerakligi ham xulq-atvorning bir normasidir. Shu normaga

amal qilish yoki qilmaslik ijtimoiy nazorat tizimi orqali boshqariladi. YA'ni, yuqoridagi sharoitda agar o'smir bola avtobusda qariyaga joy bo'shatmasa, jamoatchilik o'sha zahoti uni ijtimoiy tartibga chaqiradi. YA'ni kishilararo munosabat va muoma shaxsning madaniy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, har bir shaxs turli sharoitlarda turlicha rollarni bajaradi, bu rollarning qanday bajarilayotganligi, odamlarning kutishlariga mos kelishligi ijtimoiy nazorat tizimi orqali kuzatib turiladi. Shuning uchun ham muloqotga kirishgan kishilar doimo o'z xulq-atvorlarini, qolaversa, o'zgalarning xulq-atvorini nazorat qilib, harakatlarda bir-birlariga moslashadilar. Lekin gohida shaxsdagi rollarning ko'p bo'lishi rollarning ziddiyatiga olib kelishi mumkin. Masalan, maktab o'qituvchisining o'zi o'qitayotgan sinfda farzandi bo'lsa, dars paytida shunday ziddiyatni boshdan kechirishi mumkin, ya'ni bir vaqtning o'zida ham ota yoki ona, ham o'qituvchi rolini bajarishga majbur bo'ladi. Yoki xulqi yomon o'quvchining uyiga kelgan o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham mehmon rollari o'rtasida qiynaladi.

Turli rollarni bajarayotgan shaxslarning o'zaro muloqotlari kutishlar tizimi orqali boshqariladi. Masalan, xohlaydimi yoki xohlamaydimi, o'qituvchidan ma'lum harakatlarni kutishadiki, ular o'qituvchi roliga zid bo'lmasligi kerak. O'z rollariga mos harakat qilgan, doimo meyor mezonida ish tutgan kishining harakatlari odobli harakatlar deb ataladi. Masalan, o'qituvchining odobi, o'z kasbini ustasi ekanligi, bolalar qalbini tushuna olishi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutishi uning odobga ega ekanligining belgisidir. Odobsiz odam esa buning aksidir.

Demak, o'zaro muloqot jarayonida bir odam ikkinchi odamga psixologik ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikkala tomondan ham anglanishi yoki anglanmasligi mumkin. YA'ni, ba'zan biz nima uchun bir shaxsning bizga naqadar kuchli ta'sirga ega ekanligini, boshqa biri esa, aksincha, hech qanday ta'sir kuchiga ega emasligini tushunib yetmaymiz. Bu esa pedagogikada muhim muammodir. Har bir pedagogning o'z ta'sir uslublari va ta'sir kuchi bo'ladi. O'qituvchi shaxsining bolalarga ta'siri quyidagi eksperimentda juda yaqqol kuzatilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga anchagina o'yinchoqlar berib, shularning ichida faqat bittasiga, qizil yog'och o'yinchoqqa tegmaslik aytilgan. Bolalar yolg'iz qoldirilib, harakatlari pinxona kuzatilgan. Juda ko'p bolalar taqiqlangan o'yinchoqqa baribir tegishgan.

Eksperimentning ikkinchi seriyasida esa endi barcha uyinchoqqa tegish mumkin-u, faqat qizil qutichaning qopqog'ini ochish mumkin emas, deb aytilgan. Shu quticha tepasiga esa shu bolalarning o'qituvchisi surati ilib qo'yishgan. Bu seriyada birinchisiga qaraganda "ta'qiqni buzuvchilar" soni keskin kamaygan. Demak, bu narsa o'qituvchi shaxsining bola harakatlariga ta'sirini yaqqol isbotlab turibdi.

Kishilararo ta'sir haqida gap ketganda, o'qituvchi obro'yining roli haqida ham aytish lozim. Chunki, obro'li odam doimo o'sha obro' qozongan guruhida o'z mavqeiga va ta'siriga ega bo'ladi. Shaxs obro'yi uning boshqa shaxslarga irodaviy va emotsional ta'sir ko'rsata olish qobiliyatidir. Ma'lumki, obro' amal yoki hayotiy tajriba bilangina orttirilmay, uning haqiqiy asosi — shaxsning odamlar bilan to'g'ri munosabati, undagi odamiylik xislatlarining, boshqa ijobiy xislatlarining uyg'unlashuvidadir. Psixologik obro' — ta'sir ko'rsatishning eng muhim mezonidir.

Muloqot jarayonida odamlar bir-birlari bilan ma'lumotlar almashib, o'zaro ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki bir-birlarini to'g'riroq va aniqroq anglashga, tushunishga va idrok qilishga harakat qiladilar. Masalaning bu tomoni shaxsiy idrok va tushunish muammosi bilan bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat jarayonida shaxslarniig bir-birlarini to'g'ri tushunishlari na aniq idrok qilishlari muloqotning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Rus psixologi A.A. Bodalev boshchiligidagi laboratoriya bir-birlarini idrok qilish mexanizmlarini aniqlash borasida qator psixologik qonuniyatlarni kuzatgan. Bunday mexanizmlarga:

- identifikatsiya;
- refleksiya;
- stereotipizatsiya kiradi.

Identifikatsiya shunday psixologik hodisaki, bunda suhbatdoshlar bir-birlarini to'g'riroq idrok qilish uchun o'zlarini bir-birlarining o'rniga qo'yib ko'rishga harakat qiladilar. YA'ni, o'zidagi bilimlar, tasavvurlar, hislatlar orqali boshqa birovni tushunishga harakat qilish, o'zini birov bilan solishtirish (ongli yoki ongsiz) *identifikatsiyadir*. Masalan, birinchi marta uchrashuvga ketayotgan yigitning ichki holatini uning o'rtog'i yoki akasi tushunishi mumkin.

Refleksiya muloqot jarayonida suhbatdoshning pozitsiyasidan, xolatidan turib, o'zini tasavvur qilishdir, ya'ni *refleksiya, boshqa odamning idrokiga taalluqli bo'lib o'ziga birovning ko'zi bilan qarashga intilishdir*. Chunki, busiz odam muloqot jarayonida o'zini aniq bilmasligi, noto'g'ri muloqot formalarini tanlashi mumkin.

Stereotipizatsiya odamlar ongida muloqotlar mobaynida shakllanib o'rnashib qolgan ko'nikib qolingan obrazlardan shablon sifatida foydalanish *hollaridir*. Ijtimoiy stereotiplar har bir shaxsda u yoki bu guruhli kishilar haqida shakllangan obrazlardir. A.A. Bodalev va uning shogirdlari bunday stereotiplar ba'zan muloqotni to'g'ri yo'nalganligini ta'minlasa, boshqa hollarda esa undagi xatoliklarning sababi bo'lishi mumkinligini kuzatishgan. Idrok va tushunish borasidagi bunday xatoliklar **kauzal atribusiya** (lotinchasiga "kauza" — sabab, "atrebusio" — bermoq, qo'shib bermoq ma'nosini bildiradi) deb ataladi. Masalan, o'qituvchi bilan hamsuhbat bo'lib qolgan odamda suhbat boshidayoq "hozir odob-ahloqdan dars berishni boshlamasmikan" degan shubha paydo bo'lishi mumkin. Bu ham stereotip. Bundan tashqari, odamlar birinchi marta ko'rgan odam to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida uning tashqi qiyofasi bilan xarakteri o'rtasida bog'liqliklar o'rnatishga harakat qilarkan, shunday bog'liqliklarni aniqlash maqsadida A.A. Bodalev talabalar guruhiga turlicha qiyofali shaxslarning fotosuratlarini ko'rsatgan. 72 kishidan 9 tasi iyagi katta kishilar kuchli iroda egalari ekanligini, 17 tasi peshonasi keng odamlar aqlli ekanliklarini, 3 kishi sochi qattik odamlarning qaysarroq, qat'iy ekanliklarini, 5 kishi kichik bo'yli odamlar hokimiyatga intilgan, boshqalar ustidan buyruq berishga moyil, chiroyli odamlar yo o'ta o'ziga bino qo'ygan yoki nodon bo'lishligini aytishgan va hokazo.

Tabiiyki, bunday fikrlar mutlaq to'g'ri emas, lekin kishilar ongida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tasavvurlar shunday obrazlarni shakllantirgan. Notanish odam haqida tushunchaning shakllanishida u haqida berilgan birlamchi ma'lumot katta rol o'ynaydi. Masalan, talabalarning ikki guruhiga bir xil portret ko'rsatib, birinchi guruhda bu odam yirik olim, ikkinchisida esa, bu — davlat jinoyatchisi deb, unga ikkala holda ham ijtimoiy-psixologik xarakteristika berishlarini so'ragan. Ko'rsatmalar har xil bo'lganligi sababli berilgan ta'riflar ham har xil bo'lgan.

Birinchi guruhdagi talabalar bu odam mehnatkash, mehribon, shafqatli, g'amxo'r, aqlli bo'lsa kerak, deb o'z fikr va mulohazalarini bildirgan.

Ikkinchi guruhdagilar uni – beshafqat, makkor, qatiyatli deb ta'riflashgan. Birinchi guruhdagilar portretidagi ko'zlarni dono, muloyim deyishgan bo'lsa, boshqalar ularni yovuz, beshafqat deb aytishgan.

Shunday qilib, ijtimoiy persepsiya yoki odamlarning bir-birlarini to'g'ri idrok etish va tushunish jarayoni muloqotning muhim muammolaridan biridir. Bu jarayon psixologik jihatdan murakkab bo'lib, unda muloqotga kirishayotgan tomonlarning har biri alohida ana shu idrokning ham obyekti, ham subyekti bo'lib faoliyat ko'rsatadilar. Idrokning obyekti sifatida shaxs qaralganda, unda hosil bo'ladigan "boshqa odam obrazi" ning barcha sifatleri va qirralari nazarda tutiladi. Bunday obraz paydo bo'lishiga xizmat qiladigan belgilarga: o'sha odamning tashqi qiyofasi, uning kiyinishi, o'zini tutishi, hissiy holati, ovozi, nutqi, qiliqlari, yurishi va hokazolar kiradi.

Ma'lumki, har bir jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy meyorlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi va bunga mos ravishta ushbu meyorlarga mos kelmaydigan xulq-atvor ham boshqa jamiyatda yuz beruvchi xulq-atvordan qisman bo'lsada farq qiladi. Bir zamonlar odam go'shtini yeyish yoki yaqin qarindoshlarning jinsiy aloqa qilishlari oddiy xol deb qaralgan bo'lsa, hozir bu holatlar ulkan jinoyat hisoblanadi va ham qonunan, ham ahloqan ta'qiqlanadi.

Mustaqil hayot yo‘liga qadam qo‘ygan mamlakatimiz xalqi ham, nafaqat o‘zining o‘ziga xos rivojlanish yo‘liga, balki ushbu yo‘liga mos keluvchi va unga asos bo‘luvchi o‘ziga xos tarixi, madaniyati, axloqiy tafakkuriga ham egadir.

“Uzoq davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan-avalodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy, madaniyati qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi”. [6. –B.-125].

Ushbu qadriyatlar orasida xalqimizga xos bo‘lgan meyorlar, ulardan og‘ish hollari hamda sotsial nazorat institutlari ham mavjud bo‘lib, ularni chuqur ilmiy o‘rganish, ijtimoiy buzulishlarni oldini olish va bunda o‘zbeklargagina xos bo‘lgan sotsial institutlardan unumli foydalanish imkonini beradi.

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya bola tarbiyasi uchun oila muhitining o‘ta muhimligini e‘tirof etadi va meyordagi sharoitda esa bola o‘z ota-onasi qo‘lida tarbiya olishi zarurligini tasdiqlaydi. Biroq shunga qaramasdan hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotgan o‘smirlar o‘rtasidagi muloqot madaniyatining yo‘qolib borish holatlarining ko‘payib borayotganligi barchani birdek o‘ylantirayotgani sir emas. Eng avvalo, “Yoshlar o‘rtasida muloqot borasidagi axloqsizlik o‘z nima?” degan savolga javob topmog‘imiz maqsadga muvofiqdir.

Muloqot madaniyatiga rioya qilmaslik bu - jamiyatda o‘rnatilgan turli ahloqiy, diniy, huquqiy va boshqa shu kabi ijtimoiy meyorlardan chetga chiqish yoki ushbu meyorlarga amal qilmaslikdir. Muloqot borasidagi nomaqbul xulq-atvor esa, ushbu meyorlardan og‘ish jarayonini yuzaga keltiruvchi shaxs yoki shaxslarning meyordan chekinuvchi odatlaridir.

Muloqot borasidagi meyorlarga amal qilmaslik bir shaxsning mavjud xulq-atvor meyorlaridan og‘ishini ifodalash bilan birga, ko‘pchilik shaxslarning og‘ma xulq-atvorlarini ham ifodalovchi tushunchadir. Ayrim shaxslarda yuz beruvchi nomaqbul holatlarni paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ikkita omilni ko‘rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari va muammoli holat. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini

belgilab beradi. Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan uchta omil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Shaxsning bilim darajasi;
2. Irsiy omillar;
3. Psixofiziologik omillar;

Ushbu omillardan birinchisi tugʻma yoki irsiy omillar bir necha yillardan beri turli soha olimlarini qiziqtirib kelmoqda. IX-asrning oxirlarida genetika fani yuzaga kelgan boʻlsa, shundan buyon inson xatti-harakatining koʻp tomonlari, shuningdek xulq-atvor va hulqiy ogʻish muammolari, muloqot madaniyatiga rioya qilmaslikni ham nosogʻlom sababiylik bilan bogʻlab tushuntirishga intilib kelinmoqda.

Italiyalik psixiatr CH.Lombrozo oʻzining “Jinoyatchi inson” va “Jinoyat, uning sabablari va davolash usullari” asarlarida jinoyatchilar oddiy insonlardan farq qiluvchi tugʻma antropologik, fiziologik va psixologik xususiyatlarga ega boʻladi degan gʻoyani ilgari suradi [15. –B. -156].

Uning fikricha, tugʻma jinoyatchilar barcha jinoyatchilarning 35%ini tashkil qiladi. Nomaqbul salbiy holatlarning paydo boʻlishida tugʻma omillarning oʻrnini mutloqlashtirish mumkin boʻlmagani kabi, ularni butunlay inkor etib ham boʻlmaydi.

Kriminalologiyada mashhur boʻlgan usullardan yana biri egizaklar usulidir. Bir necha oʻn yillardan beri bir tuxumli va ikki tuxumla egizaklar chuqur oʻrganib kelinmoqda. Olimlarning fikricha bir tuxumli egizaklarda tugʻilgan vaqtlarida intellekt darajasi bir xil boʻladi, intellekt orasidagi farq 30% tashqi taʼsirlarga va 70% genlarga bogʻliq boʻladi. N.S.Kantonistov oʻtkazgan tadqiqotlarning koʻrsatishicha, ota-onalarning surunkali ichkilik ichishi oqibatida muloqot madaniyatining buzilishi ham bolalar intellekt darajasining pasayishiga sabab boʻlishi mumkin.

Oʻsmirlarimizni muomala madaniyatini shakllantirishda eng katta vosita - bu ulardagi bilim darajasining toʻgʻri shakllantirilishidir. Bugungi kunda oʻsmirlarimizning aksariyati muloqot madaniyatining oʻziga xos koʻrinishlari,

muloqot madaniyatining meyorlar va uning foydali yoki tomonlari haqida juda kam bilimga egadirlar.

Qonunga itoat etish huquqiy madaniyatning asosidir. Hozirgi paytda huquqiy savodxonlikni oshirish uchun targ'ibotning ma'lum tizimi mavjud. Bular, radio, televideniya, huquqiy nashrlar, shuningdek turli uchrashuvlar, davra suhbatlari bo'lib, ular asosida maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar, rukunlar tashkil etilgan. Targ'ibot qanday ko'rinishda bo'lmasin, kishi ongi, dunyo qarashi kaliti hisoblanadi. Shunday ekan, aholida huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni shakllantirishda targ'ibotdan unumli foydalanishimiz zarur. Konstitutsiyadan tortib, qabul qilinayotgan barcha qonunlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetish va o'z huquqlarini ximoya qila olishlarida namoyon bo'ladi. Bu esa qonunni buzish nechog'lik xatoligini, unga nisbatan doimo hurmatda bo'lish kerakligini tushunishga olib keladi.[17. –B.47.]

Shunday ekan, ushbu bo'linga xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, kishilararo munosabat va muomalaning shaxs madaniy shakllanishiga ta'sirini oshirish uchun yoshlarning muomala va munosabat madaniyatini shakllantirishga ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Ota-onalar farzandlarining uyda o'qishlarini nazorat qilmasliklaridan tashqari, ularni ta'lim dargohidagi hayoti bilan ham unchalik qiziqishmayapti. Bu esa ularni ko'cha kuyda muomala va munosabat madaniyatini yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda. Yoshlarning har tomonlama rivojlanishida kishilararo munosabat va muomalaning shaxs madaniy shakllanishiga ta'sirini kuchaytirish lozim.

2.2 Oila muomala odobi va o‘zaro munosabatlar tarkib topishining omili sifatida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov shunday degan edilar: “ Biz naslimizning kelajagi-sog‘lom avlod uchun kurash boshladik. Shu nom bilan orden ta’sis etdik va maxsus xalqaro jamg‘arma tuzdik. Bu bejiz emas. Sog‘lom avlod deganda biz faqatgina baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma’naviy boy avlodni ham ko‘zda tutganmiz. Chunki, har taraflama sog‘lom avlodga ega bo‘lgan xalqni hech qachon yengib bo‘lmaydi. Buni hammamiz yaxshi anglab olmog‘imiz shart ”.

Har bir oila ijtimoiy struktura sifatida jamiyat oldida ma’lum bir funksiyalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy, ijtimoiy tizimda oilaning o‘rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy funksiyalari hisobga olish lozim.

Oila muomala odobi va o‘zaro munosabatlar tarkib topishining omili sifatida o‘ta muhim jihatlarni qamrab oladi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hozirgi zamon oilasining asosiy fuksiyalari qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy funksiya – oilaning iqtisodiy funksiyasi uning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Oila o‘zining shu funksiyasi tufayli jamiyatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Masalan: bola tarbiyasi – bolani iqtisodiy ta’minlash borasidayoq uning jamiyatga keltirgan foydasi katta miqdorni tashkil etadi (bitta “Neksiya” mashinasining puli ketar ekan).

2. Oilaning reproduktiv funksiyasi – oilaning muhim funksiyalaridan biri bo‘lib, jamiyatning biologik uzluksizligini ta’minlash, bolalarni dunyoga keltirish funksiyasidir. Bu funksiyani asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan

iboratdir. Oila faqat yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, ularni ilmiy, madaniy yutuqlar bilan tanishtirish, salomatligini saqlab turishdan iboratdir.

3. Oilaning tarbiyaviy funksiyasi ham eng muhim funksiyalardan biridir. Bolalarni aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik, muloqot va munosabat tarbiyasiga oilada asos solinadi.

4. Oilaning kommunikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

5. Oilaning rekreativ funksiyasi - o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birini salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishlarini tashkil etish funksiyasidir. Oilada bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etishdir. Hozirgi vaqtda oilani rekreativ funksiyasini davlat va ijtimoiy tashkilotlar o'z zimmasiga olmoqda. Odamlarning xavfsizligini ta'minlash, qariyalarga bepul tibbiy yordam ko'rsatish, qariyalar uylarning ochilishi va boshqalar.

6. Oila filitsitologik funksiyasi – italyancha “filitsite” – “baxt” shaxsiy baxtga erishishga intilish, oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi bo'lib bormoqda. Oilada er-xotinning bir-birini to'liq tushunishi, ularning o'zlarini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi.

7. Oilaning regulativ funksiyasi – oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimi, ijtimoiy nazoratni oila ustunlik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. O'tgan zamonlarda oilani boshqarish funksiyasi ma'lum darajada rasmiy tarzda belgilab qo'yilgan edi – asosan erkak. Hozirgi zamon oilalarida esa oilaning boshqaruv funksiyasi asosan axloqiy meyorlar oila a'zolarining shaxsiy obro'si hamda ota-onalarning bolalarga nisbatan bo'lgan munosabatlaridagi obro'si kabilar yordamida amalga oshiriladi.

8. Oilalarning relaksatsiya funksiyasi – oila a'zolarining jinsiy emotsional faoliyatini ruhiy, jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Yuqoridagi barcha funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ham ta'sir etadi. Shuningdek oila shaxs baxtini ta'minlovchi me'zon hisoblanadi. Oila

muomala odobi va o‘zaro munosabatlar tarkib topishining omili sifatida yuzaga chiqadi.

Er-xotinlar oilada ham birga shaxsiy va mulkiy masalalarda ham teng huquqlidir. Bu konstitusiyaviy qoida bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mustahkamlangan [1.-B.-34]. (46-moddasi). Bizning jamiyatimizda ayol bilan erkakning oilaviy munosabatlarida teng huquqlikka asoslanadi [2.-B.-5]. (oilalar kodeksi 1-bo‘lim 2-moddasi). Oilada er-xotin bab-baravar majburiyatlarga ega, ular bir-biriga ma‘naviy yordam berib, ko‘makdosh bo‘lib yashaydilar. O‘zbekiston Respublikasining “Nikoh va oilalar” kodeksi 25-moddasiga muvofiq, er-xotinning birgalikda nikohda turgan davri davomida orttirgan mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Har bir insonda oilaviy iqtisod uslubi nikohdan o‘tgunga qadar shakllana boshlaydi. Oilaning iqtisodiy farovonligi oilaning daromadlari mablag‘ining qanchaligiga qarab emas, uy-ruzg‘or xo‘jaligining o‘z talablarini tartibga solish malakasiga va nihoyat oilalar qurgan er-xotinlarning qanday mehnat ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘ladi. Oilaning iqtisodi, byudjeti, daromadni rejali sarflash, kundalik harajatlarga zaruriy buyumlarga pul ajratishi, ro‘zg‘or yuritish oqilona boshqarish, er-xotinning katta tajriba malakaga ega bo‘lishlariga bog‘liq. Xo‘jalik ishlari uni tashkil etish, bu borada oilalar rahbarini aniqlash olish ham nihoyatda zarur. Oilada er-xotindan qay biri tadbirkorlik bo‘lsa mablag‘ga javobgar bo‘lmog‘i lozim.

Oilada iqtisodiy yetishmovchiliklar nikohdan keyingi dastlabki 5 yil ichida kechkin namoyon bo‘ladi. Bu oilada o‘zaro munosabatlarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Bu haqda o‘zbek ruhshunos olimlari N.K, Mamedov, N.A. Sog‘inov, E.SH. Usmonov ham o‘z ilmiy ishlarda qayd qilib o‘tganlar, chunki yosh er-xotin ro‘zg‘or yuritishni durust bilmaydilar, maoshlaridan ehtiyojlari ortiqroq bo‘ladi. Shu sababli ba‘zi yoshlar ota-onalaridan iqtisodiy yordam kutadilar yoki meyoridan ortiq ishlamaydilar. Natijada oiladagi tinchlik buziladi, muomala va munosabat masalasiga darz ketadi, yemay-ichmay jamg‘arma to‘playdilar, bu esa ularning sog‘ligiga zarar yetkazadi.

Ba'zi ayollar o'z holatini, moddiy ta'minotini tanish-bilishlikka taqqoslaydilar. Oqibatda oiladagi halovat yo'qoladi, munosabat buzilib, muomala odobi doirasi shikastlanadi. Shunday hollarda erkak o'z qadriga yetadigan ayolni uchratib qolsa, oila barbod bo'ladi. Uy-ro'zg'or iqtisodini tejash uchun avvalo o'z oylik harajatlarini rejalashtirishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun er-xotinning ongli munosabatlari, tushunchalari, ko'nikmalari, malakalari, yetarli bo'lmog'i lozim. Oila byujet – jamg'arma, ko'pincha oilaning hayotiy uslubiga bog'liq. Oila hayotning uslubiga, oila a'zolarining qiziqishiga qarab oila jamg'armasining taqsimoti belgilanadi. Er-xotin o'z harajatlarini oqilona rejalashtirsin. Agar ular oldindan o'z oilalarida iqtisodni boshqarishdan elementar malaka, tushuncha hosil qilmagan bo'lsalar, bu murakkab ishni o'rganib olishlari oson emasligi aniqdir. Uyda hamkorlikda bajarilgan ish esa oilani mustahkamlaydi. Oilaviy turmushda iqtisodiy muammolarni, tejamkorlik asosida tartib bilan yuritilsa, oilaning farovonligi ortib boradi. Ota oilada hayot mashaqqatlarini tortib barcha oiladagi hursandchiliklarga o'zining bukilmas va egilmas bardoshi, mehnati orqali erishgan shaxs sifatida g'aybatlanadi. Otalar tuproq qorib bino quradilar, metall kesib mashinalar yaratadilar. Oilada otaning rahbarlik va yo'l boshchilik roli to'g'risida ulug' insonlar, buyuk siymolar hikmatli so'zlar aytishgan. Jumladan, Alisher Navoiy farzandlarini o'z ota-onalarini qadrlashga da'vat etib: "Birisin oy angla birisin quyosh", deya madh etar ekan, otani quyoshga o'xshatadi.

Payg'ambarimiz Muhammad S.A.V qoldirgan hadislardan birida: Otangning do'sti bilan do'stlik aloqasini davom ettirishing otangga qilgan yaxshiliging hisoblanadi"[16.-B. -47]., deyiladi.

Xalq orasida "bir ota o'nta o'g'ilni boqishga qurbi yetadi, biroq o'nta o'g'il bitta otani boqa olmaydi" degan naqlda chuqur ma'no bor. Ota – oila boshlig'i posbonidir. Zero, oilaning har bir so'z ilg'amas yumushlaridagi muammolarining miridan sirigacha aralashib, unga faqat to'g'ri yo'l ko'rsatib turishdek insoniy ma'suliyat ota yelkasida turadi.

Buni mohiyat jihatdan tushungan erkak o'z ma'nosida ota hisoblanadi. Shu o'rinda otaning oiladagi obro'si masalasi atrofida fikr yuritish joizdir. Ota obro'sini

dastlab oilada mustahkamlaydi. Xotini bola-chaqasi orasida obro‘ topgan ota jamoat orasida ham shubhasiz e’tibor topadi, obro‘ orttiradi.

Atoqli chex pedagogi Yan Amos Komenskiy “Oila – ahloq maskanidir” deb qayd qilar ekan onaning farzandga beradigan mehri uning qalbida butun insoniyatga bo‘lgan mehr-muhabbatni paydo qiladi, deb aytgan edi. Ha, onalar – buyuk zot farzandni yorug‘ dunyoga keltirib, kechalarni bedor o‘tkazgan, bir parcha etligidan oq yuvib, oq taragan, qornini to‘yg‘azgan, kasallanib qolsa, jon hovuchlab atrofida parvona bo‘lgan, aql – shuur, fahm - farosat, yaxshi tarbiya berib barkamol inosnlar qatoriga qo‘shgani uchun ham ona ulug‘ zotdir.

Nikohdan o‘tib oila qurilgandan keyin u bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi. Shulardan eng ko‘p kuzatiladigani, psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadigani yosh oila bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda er-xotinlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanadi, farzandlar dunyoga keladi., ularni tarbiyalash, voyaga yetkazish, muomala va munosabat bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy ishlar amalga oshiriladi. Oilaning mustahkam bo‘lishi, er-xotinning baxtiyor hayot kechirishlari va tinch-totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushishi muhim rol o‘ynaydi.

Er-xotinlarning muomala va munosabat borasida bir-birlariga ko‘nikib ketishlarini quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1. Ruhiy ko‘nikish (psixologik, psixosotsial moslashuv) – xarakter, shaxsning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqish – havaslari, dunyoqarashlari va boshqalar.
2. Qarindoshlik tufayli ko‘nikish, ya’ni kelin-kuyovning qaynona, qaynisingillar, qaynilar va yangi oilaning boshqa yaqin kishilari bilan bo‘lgan munosabati, ular bilan chiqishib ketish darajasi.
3. Uy-ro‘zg‘or ko‘nikmasi – har bir oilada bo‘lganidek, uy ishlarini bajarishga ko‘nikishi, uddalash malakalarini shakllantirish.
4. Er-xotin bir-birlarining individual xususiyatlari, ehtiyojlari, imkoniyatlarini hisobga olgan holda bir-birlariga jinsiy moslashishlari.

Yangi kelin-kuyovlarning ko'pchiligi bir-birlariga mos bo'lmasalarda, ammo ularning oilaviy hayotdan qoniqish ko'p jihatdan moslashish xarakteriga bog'liq.

Ma'lumki, inson turmushini emas, hatto qush uyasini buzish ham uvol ekanligini bizga ota-bobolarimiz me'ros qilib qoldirgan. Ana shu muqaddas qadriyatga sodiq qolgan holda turmushga jiddiy munosbatda bo'linsa, u taqdirda metinday mustahkam oilalar qaror topaveradi.

Quyida biz buyuk tatar olimi Rizouddin Bin Faxruddin (XIX asrning II yarmi XX asrning boshlarida yashagan) ijodining sarchashmalaridan biri – "Oila" asarlaridan ayrim namunalar keltiramiz.

"Er ila xotunning qonuniy suratda birga bir vujud bo'lishlaridan oila tashkil bo'lur. Er o'zi uchun bir xotun tanlab dunyoda bo'lgan tirikligida, shodligu qayg'usida, har bir yaxshi yomon kunida suyanchiq bo'ladigan, joniga rohat baxsh etadigan bir sirdosh topur. Tarbiyali xotun ota-onasini, er hamda bolasini, butun oila xulqini, oilaga munosabatli bo'lgan do'stu qo'shnilarini, xodimu xodimalarini tarbiya-yu, husni xulqi bilan mamnun qilur. Ammo tarbiyasiz xotun buning aksini qilib, ota-onasini, eru, bolasini el masxarasiga qoldirur. O'zi ham baxtsiz o'laroq yashar, bolalarini tarbiyasiz qoldirib, umrlarini barbod qilur" [17.-B.-74].

"Er va xotinning bir-birlariga bo'lgan mehru vafosi bizga ota-bobolarimizdan qolgan bebaho me'rosdir."

Kaltabin kishi o'zidagi afzallikni umr yo'ldoshining ustidan hukmronlik quroli qilib foydalanishga urinadi. Er-xotin orasidagi oliyjanob munosabatlarning quroli hisoblanadi. Oilaviy hayotda yolg'iz sening manfaating emas, balki oila a'zolari manfaatlari asosiy masalalardan hisoblanadi. Bunday tadbir oilani to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Oiladagi sog'lom muhit asosidagi odamiylik insonparvarlik munosabatlari farzandning ruhiy dunyosiga ijobiy ta'sir etadi.

Oiladagi ruhiy iqlim, totuvlik hamisha barqaror bo'lishi uchun qariyalar, ota-onalar o'z farzandlarining ruhiy dunyosini bilishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib ish tutishlari maqsadga muvofiqdir. Farzandlar har

qachongi vaqtda ham oilada o'zidan kattalarga hurmat bilan qarashi kerak. Oilada bolalar ongiga singdiriladigan axloqiy qoidalar, urf-odatlar, an'analar va rioya qilish yo'l-yo'rig'i zerikarli, quruq nasihatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim. Aksincha, eng yaxshi omillardan biri – aniq hayotiy omillarni tahlil qilish orqali to'g'ri tushuncha va tasavvurlarni hosil qilishdir. Oiliada mehnat taqsimotini to'g'ri va adolatli amalga oshirishi, farzandlarda har xil ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish mehnatsevarlik xislatlarini vujudga keltiradi.

Mehnat ulushlarini o'g'il-qizlarning yoshiga, kuchiga, didiga, qobiliyati va qiziqishiga mos ravishda taqsimlash ularda kundalik ehtiyoj, zaruriyat hissini to'g'dirish bilan birga ma'suliyat degan odob xislatlarini ham barqarorlashtiradi.

Turmushdagi samimiy va oqilona munosbatlar, iliq ruhiy iqlim ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik, ko'ngilchanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik, to'g'rilik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga ma'sulit, ozodalik, izzat-nafs, tejab-tergashlik, chiroyli muomala va chiroyli munosabat kabi shaxs hislatlari tarkib topadi. Agarda oilalardagi turmush munosabatlari qo'pollik, andishasizlik, negiziga qo'rilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruhiy dunyosida kekkayish, pismiqlik, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik illatlarini keltirib chiqaradi.

Oila byudjeti oilaning ma'lum muddatda kutadigan daromadlari va xarajatlarining xisob-kitobi. Oila byudjetining daromadi barcha oila a'zolarining ish xaqi, turli mukofotlari, nafaqa, stipendiya, pensiya, shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan olinadigan foyda va boshqalar yig'indisi xisoblanadi.

Uy-joy, avtomobil, zamonaviy texnika, an'anaviy tadbirlar kabilarga sarflanadigan mablag' katta xarajatlar xisoblanadi.

Turli uy-ro'zg'or anjomlari (bolg'a, tesha, supurgi, changyutgich, qozon, idish-tovoq va boshqalar), ro'zg'orga oid, zarur kichik jixozlar, maydachuydalarga sarflanadigan mablag' kichik xarajatlar deb ataladi.

Oziq-ovqat maxsulotlari uchun, oilaga qo'shimcha daromad keltiruvchi xo'jalikka yo'naltirilgan sarflar xamda kundalik extiyoj uchun ajratiladigan mablag'lar doimiy xarajatlar sanaladi.

Uy-xovli soliqlari, radio, telefon, gaz, suv, elektr kabilarga to'lovlar, mavsumiy kiyim-kechaklar, o'quv qurollari va boshqalarga sarflanadigan mablag'lar takrorlanuvchi xarajatlar deb yuritiladi.

Oila byudjetini to'liq va to'g'ri tushunishdan iqtisodning tub ma'nosini anglash, shuningdek «iqtisod» qasrining sexrli kalitini topish boshlanadi. Gap shundaki, oila va uning a'zolari extiyoji chegaralanmagan. Masalan: hamma oila xashamatli uy-joy, zamonaviy avtotransport, texnikaviy jixozlarga, eng yaxshi kiyim-kechak, sifatli oziq-ovqat, ko'rkam dala xovli kabilarga ega bo'lishni istaydi. Ammao, oila byudjeti doim chegaralangan. Demak, chegaralangan imkoniyatdan samarali foydalangan xolda chegaralanmagan ehtiyojni qondirish muammolarini yechish muomala va munosabatda o'ziga xos odobni talab qiladi.

Yosh oilalar faqat bir-birlarini tushunmasligi tufayligina emas, balki iqtisodiy sharoitni yo'lga qo'ya olmay xam buzilib ketishi mumkin.buning uchun eng avvalo muomala va munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish lozim.

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda

bo‘lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o‘zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o‘rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir.

Muloqot tashqi ta’sirlar, namunalar asosida o‘zini-o‘zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ruyobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish o‘quvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyati ham, boshqa odamlar tomonidan taqlid qilinadi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi. Odamlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g‘ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish - o‘zini - o‘zi mukammallashtirish, o‘zini - o‘zi ruyobga chiqarish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini - o‘zi baholash, o‘ziga - o‘zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidning tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich egallab borish - bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi - bu o‘zini - o‘zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o‘ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto‘g‘ri munosabatdir. Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, asosan quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samaralar sari yetaklaydi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a’zolari o‘rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish.

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a’zoning qulay pozitsiyasini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to‘g‘risidagi axborotni egallashga oid maxsus mashg‘ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo‘ljallangan

ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

L. S. Vigotskiy, A. N. Leontyev, A.R. Luriya, D.B.Elkonin, A. V. Zaporozets, M. I.Lisina tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolaning dastlabki ijtimoiy ehtiyojlaridan biri - bu muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporozets va M. I. Lisinalar tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha oilad bir nechta bosqichlar tarzida rivojlanib boradi:

- 1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;
- 2) kattalar bilan hamqorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 3) avvalgi barcha ehtiyojlarga kattalar tomonidan hurmat qilish ehtiyoji tug'iladi;
- 4) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada atrofdagilar bilan o'zaro bir-birini tushunish ehtiyoji vujudga keladi.

Xullas, inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirilayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamkorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi nafaqat ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettiribgina qolmaydi, balki ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi obyektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o'zini erkin, ozod, bermalol his etish hislatini o'zlashtirish uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin [18.-B.-23].

Yuqoridagi qoidalarga barcha talabalar rioya qilib, g'aybalarini to'g'ri tutish, muammoli vaziyatlarga va muloqot maqsadiga, maromiga mutanosib tushadigan hodisalar, holatlar, sharoitlar, muayyan muhit, mazmunli harakatlar, imo - ishoralar, mimika, pantomimika ustida ishtiyoq bilan shug'ullansalar, yengil tabassum, iliq, miyig'ida kulish, chiroyli yurish kabi mashqlarni amalga oshirsalar, noverbal nutq yordami bilan shaxslararo munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yish

imkoniyatiga erishadilar. Atrofdagilarda yoqimli taassurot qoldirish, ularda mehr - muhabbat tuygʻusini oʻygʻotish muloqotdosh tanlashga imkon tugʻdiradi. Jismoniy va maʼnaviy jihatdan erkinlikka erishish oʻziga ishonch tuygʻusini yuzaga keltirsa, mustaqillik muloqotda teng huquqli sherik boʻlishga shart-sharoit yaratadi.

Bolalarni yoshlikdan avvalo oilada, soʻngra taʼlim maskanlarida muloqotga oʻrgatib boriladi. Muloqotga oʻrgatishning usullaridan biri mashgʻulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bogʻcha sharoitida tarbiyachi turli mashgʻulotlar oʻtkazib muloqotga oʻrgatadi. Avval elementar oʻzini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullarni tarkib topshiriladi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxsga ijtimoiy - psixologik treninglar tashkil qilish orqali muloqotga oʻrgatiladi. Shaxsning oʻzi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki, shaxs muloqotda boʻlmasdan faoliyat subyekti sifatida ham, individual inson sifatida ham toʻlaonli rivojlana olmaydi. Tajribali psixolog A. A. Bodalev fikricha, hatto oʻyin faoliyatida bola muloqotda boʻladi. Taʼlim jarayonining asosida muloqotga oʻrgatish masalasi birinchi oʻrinda turadi. Qolaversa mehnat taʼlimi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonni dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi. YAʼni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi.

Shaxsning irodaviy sifatlarini rivojlantirish orqali ham uni muloqotga oʻrgatish oson roʻy beradi.

Jamoa muhitini shakllantirishda ikkinchi tomon ham bor - bu jamoa aʼzolarining ruhiy madaniyatini shakllantirishdir. Shu maqsadda oʻquvchilarga ularning insoniy muloqot, inson shaxsi, bir-birini baholash xususiyatlari («men va boshqalar», «men boshqalarning koʻzi bilan») toʻgʻrisidagi mulohazalarini ragʻbatlantiruvchi axborotni berish zarur. Uni insholar, suhbatlar, treninglar orqali uyushtirish mumkin. Maxsus mashqlar orqali muloqot usullariga oʻrgatish shunga taalluqlidir. Ruhiy madaniyatga oʻrgatishni oʻsmirlik yoshidan boshlash muhim, chunki, oʻz shaxsi haqidagi axborotga qatʼiy ehtiyoj xuddi shu davrda vujudga

keladi. O'smirlikda o'zining "Men"i xususida ziddiyatli kechinmalar boshlanadi. Ilk yoshlik paytida - o'z ruhiy holati haqida hayol surish kuchaygan, muloqot juda ahamiyatli va g'oyat tanlab o'tkaziladigan yoshda inson shaxsi, shaxslararo muloqot to'g'risidagi axborot zarurdir.

N.P. Anikeyeva fikricha, boshqa odamlar bilan muloqotda har bir shaxs muayyan ijtimoiy rolni egallaydi. Rollar shaxsni to'laroq ochib berishi, uni niqoblashi mumkin. Lekin pozitsiya - rollarni tanlash albatta insonning o'z mohiyatiga, uning kuchiga, zaifligiga, salohiyat darajasiga, o'z-o'zini tanqid qila olishiga, xulq - atvorining puxtaligiga, o'zining chetdan ko'ra bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. [19.-B.-146-147].

Ba'zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo'lish uchun o'zidagi eng yaxshi narsalarni yashirishga, buzishga majbur etadi. Erta o'smirlik paytida yig'it va qizlar yakkalik holatini boshdan kechiradi. Ular his-tuyg'ularini hech kimga aytishmaydi. O'zi haqidagi va atrofdagi kishilar haqidagi axborot - muloqot usullarini va mazmunli muloqotni tashkil etishga intilishni belgilab beradi. Buning uchun ruhiy tushdagi muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Har bir kishiga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlar asab tizimi turi bilan belgilanadi va avvalo temperamentda: ta'sir ko'rsatish sur'atida, ham tabiiy signallarda (ovoz, yorug'lik, rang, hid, haroratning o'zgarishi), ham ijtimoiy signallarda (so'z, voqea, o'ta sezgirlikda, emotsional ko'zg'aluvchanlikda, tashvishlilik darajasida, ekstraversiya, introversiya) namoyon bo'ladi. Ekstroversiya bilan introversiya kishining ruhiy tavsifi sifatida muloqot sohasida yorqin namoyon bo'ladi. Ekstroversiya - individning tashqi dunyoga, introversiya - ichki dunyoga qarashidir. Asab faoliyatining kuchli tipi bilan bog'liq ekstroversiya xususiyatlari ustun bo'lgan kishilar ancha kirishimli, aloqalar, tanishishlar doirasiga moyil bo'ladilar. Ular ishtiyoq bilan yangi tanishlar orttiradilar, shovqin - suronli davralarni yoqtiradilar. Introvertlar - bu asab faoliyatining zaif tipiga mansub kishilardir. Ular o'z ichki dunyolariga berilishga, kechinmalarga moyillar. Atrofdagilardan ko'p tashvishlanadilar, ular yaqinlarning tor doirasini ma'qul ko'radilar. "Ekstroversiya-introversiya" o'qining o'rtalarida

joylashgan kishilar psixologiyada sentrovertlar degan nomni olgan. Ular meyorida kirishimli, meyorida yolg'izlikka moyildirlar.

Nutq bilan ishlash orqali ham muloqotga o'rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she'r o'qish, hikoyani gapirish kabi treninglar ham muloqotni shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni esa o'yin faoliyati davomida muloqotga o'rgatish oson kechadi.

Muloqotga o'rgatishda o'yin va noo'yin shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta:

1. Darsga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paytda didaktik o'yinlardan foydalanish, ularda muloqot tashkilotchisi rolini muallim emas, o'quvchilardan biri bajarishi.

2. E'tiborni javobning ijobiy jihatlariga qaratish. O'quvchilar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o'rgatiladi, ayni paytda mayda - chuydalargacha e'tiborni qaratib, o'rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatishni o'rganish. Kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish, ya'ni kamchilikni bitta o'quvchining o'ziga aytish orqali ta'sir qilish.

3. Insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu o'quv qo'llanma jamiyatning yangilanish davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini anglashga yordam beradi.

Yaratiladigan yangi qo'llanmalar oldiga talaba - yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllanishi jarayonidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etish talab etiladi.

Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi:

1. Hamkorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot.
2. Do'stona munosabatlar asosidagi muloqot.
3. Masofadan turib muloqotga kirishish.

4. Qo‘rqitish(qo‘rquv) asosidagi muloqot.

5. Yolg‘on obro‘-e‘tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot.

Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi tashkil etadi. Bu uslub haqida M.O.Knebel, I.P.Volkov, V.F. Shatalov kabilar o‘z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, bolalar bilan bo‘ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi. Bu usullarning boshlang‘ich shakllanishida oilaning o‘rni katta hisolanadi.

Ikkinchi uslub asosan do‘stona munosabatlar, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do‘stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta‘minlaydi. Maroqlilik bilan do‘stona munosabat birgalikda rivojlanadi. Pedagog bir tomondan bolalar uchun yaqin o‘rtoq, ikkinchi tomondan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo‘lishi lozim.

Uchinchi uslub, ya‘ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasida ma‘lum bir masofa bo‘lishi kerak. Masofa juda uzoq bo‘lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchilik ko‘chayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro‘-e‘tibori ortadi.

To‘rtinchi uslub-qo‘rqitish asosidagi muloqot bo‘lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba‘zi pedagoglar o‘quvchilarni qo‘rqitish orqali muloqotda bo‘ladilar. Chunki, ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Ayniqsa katta auditoriyada ma‘ruza o‘qiydigan ma‘ruzachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo‘rqitib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o‘zaro tushunishga to‘sqinlik qiladi.

Beshinchi uslub – yolg‘on obro‘ – e‘tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo‘lib, yosh o‘qituvchilar malakasi yetarli bo‘lmagani uchun yolg‘on ishlatadilar. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchi bilan tezroq muloqotda bo‘lib olishga harakat qiladi. Bunday usulni qo‘llaydigan pedagogda umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat yetishmaydi. Demak, pedagoglarning fikricha, birinchi va ikkinchi uslub asosida muloqotga kirishishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon o‘ziga xos xususiyatga ega. Uni oxiri va boshi

yo‘q. Biz bolani tug‘ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Bola ota- onasining hatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o‘rganadi, hatto og‘zidan nima chiqsa o‘shani qaytaradi. Demak, ota-ona bola shaxsini shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo‘lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-ona o‘rtasidagi doimiy muloqotdir. Bolani tarbiyasi yaxshi bo‘lishi uchun uni sevish kerak. Biz bola bilan muloqotga necha minut vaqt ajratamiz? Shuni o‘ylab ko‘rish kerak. Bir soat vaqt ajratsak, bu yaxshi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot bir so‘tkada 1,8 soatni tashkil qilar ekan. Ona 35 daqiqa muloqotda bo‘lar ekan: “qorning ochmi? Nima yeysan?” kabilar tarzida. Bola savol bersa ayrim ota-onalar javob bergisi kelmaydi. Ona ovqat tayyorlash bilan ovora, ota gazeta o‘qish bilan. Turli yoshdagi farzandlarda u yoki bu muammo bo‘lishini biz kattalar bilishimiz, unga vaqt ajrata olishimiz kerak. Moddiy g‘amxo‘rlik bolaga, uning tarbiyasi uchun, muloqoti shakllanishi uchun yetarli emas. Bolani kalbiga quloq sola bilishimiz muhim. Ota-ona o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqishining sabablaridan biri bolaga e‘tibor bermasligidadir. Nima uchun biz hamkasblarimiz bilan, do‘stlarimiz bilan qancha muloqotda bo‘lsak ham qoniqmaymizu, lekin farzandimiz bilan kam muloqotda bo‘lamiz?

Ota-onaning e‘tibori oilada hissiyot madaniyatini tarbiyalashga ham yordam beradi. Shunday savol tug‘iladi: Nima uchun o‘smirlar jinoyatchilik ko‘chasiga kirib qolayapti? Masalan, o‘smirlar keksa kishini o‘lgudek kaltaklashayapti. Demak, biz kattalar farzandimizga e‘tiborliroq bo‘la olmayapmiz. Ularning ko‘ngliga quloq solmayapmiz. Ularda boshqalar g‘amiga hamdard bo‘lish tuyg‘usini shakllantira olmayapmiz. Yoshlar bilan moda haqida gaplashsangiz ular siz bilan ko‘ngildan muloqotda bo‘ladilar. Shu tariqa ularning ko‘ngliga qo‘l solish mumkin.

Bolalar bilan ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkillashtirish uchun turli to‘siqlar xalaqit beradi. Jumladan, band bo‘lish “to‘sig‘i”, ota-onalar doimo band bo‘lishadi, bolaga e‘tibor berolmaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko‘p. Bu bolada hissiy rivojlanishni to‘xtashiga olib keladi.

Ikkinchi to‘siq- yoshga bog‘liq “to‘siq” bo‘lib, bunda kattalarning yoshi

ulug bo'lgani uchun bolani tushunmaydilar. Bolaning ichki dunyosini hisobga olmaydilar. Kattalar uchun arzimaydigan narsalar bola uchun muhim bo'lishi mumkin.

Eski qolip “to'sigi”- ota-onalar o'zining bolasini yoshi ulg'ayib borayotganini sezishmaydi. Farzand ulg'ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. Shuning uchun ular o'rtasida tushunmovchiliklar, nizolar tug'iladi. Biz kattalar farzandlarimiz bizni doimo tinglashlarini xohlaymiz, bizga bo'ysunishlarini istaymiz. Ularning mustaqil fikrlarini eshitishga erinamiz. Demak, kattalar bolaga nisbatan eski qarashlarini yo'qotishlari lozim. Shunda o'rtadagi to'siq yo'qoladi.

Tarbiyaviy an'analardagi “to'siq” – ota – onalar oiladagi ilgarigi tarbiyaviy ta'sir usullarini qo'llaydilar, bolani ruhiy rivojlanishi darajasini hisobga olmaydilar. Ular o'zlarining malakalarini oshirish ustida ishlamaydilar. Natijada bola bilan o'rtalarida to'siq paydo bo'ladi, bir-birlarini tushuna olmaydilar.

Didaktizm “baryeri (to'siq)” – bunda ota – onalar bolaga doimo aql o'rgatadilar. “Unday qilma,” “Bu to'g'ri, bu noto'g'ri” va h.k. Bolaning har bir qadami o'lchanadi, baholanadi. Bu esa bolada zo'riqishni yuzaga keltiradi, asabiy bo'lib qoladi. Demak, yuqoridagi “to'siqlar”ni yo'qotish uchun ota-ona farzandi bilan to'g'ri muloqotda bo'lish yo'llarini izlab topishi kerak. Shundagina bola bilan til topa olishlari mumkin bo'ladi.

Fuqorolik jamiyati qurish sharoitida oilaviy munosabatlarni takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq oila asoslarini mustahkamlash, uni iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qator qonunlar, qarorlar va Prezident Farmonlari qabul qilindi.

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqorolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan sobitqadamlik bilan borar ekan, jahon hamjamiyatida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lmoqda. Ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri ijtimoiy faol hamda qonunga bo'ysinuvchi fuqorolarni tarbiyalashdir.

Oilaviy munosabatlardagi er-xotinning huquq va burchlari, farzand tarbiyasi, majburiyatlari, istiqbol oldidagi mas'ullik muhim hisoblanib, bu borada birmuncha ishlar amalga oshirilgan. Biroq keyingi paytlarda jamiyatimizda yaqqolroq namoyon bo'lib borayotgan yoshlar o'rtasidagi muloqot va munosabat borasidagi ba'zi nomaqbul jihatlar, ushbu vazifalarni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur muammolarni ilmiy jihatdan o'rganishni taqazo etmoqda.

Hozirgi kunda barcha soha egalarini birdek tashvishga solib kelayotgan va keyingi paytlarda jamiyatimizda yaqqolroq namoyon bo'lib borayotgan muloqotdagi nomaqbul holatlarni pedagogik jihatdan o'rganib, ularni oldini olish ishiga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish, oilalarda ta'lim-tarbiya jarayonlariga alohida ma'suliyat bilan yondashishdan iboratdir.

Oilalardagi muloqot va munosabat borasidagi odob tushunchalarini pedagogik jihatdan o'rganish va oldini olishga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning o'sishini pasaytirish yo'llarini izlash va ularni oldini olish samaradorligini oshirishdan iboratdir.

O'smir yoshlarning ma'naviy olami va ularning ta'lim-tarbiyadagi, oilalardagi o'rni bitiruv malakaviy ishi mavzusining obyekti bo'lsa, jamiyatdagi xulq-atvor muammolari, ularning yuz berish jarayonlari, sabab va oqibatlari bitiruv malkaviy ishi mavzusining predmetidir.

Yoshlarga muomala odobi, muloqot madaniyatini o'rgatishda oila-mahalla – ta'lim dargohi o'rtasidagi uzviy aloqani o'rnatish lozim.

Ushbu rejaga xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, oila muomala va o'zaro munosabatlarning tarkib topishida asosiy omil hisoblanadi. Bu yuqoridagi fikr va mulohazalardan ham anglash mumkin. Shaxsning shakllanishida oilaviy munosabat va muloqot madaniyatining yuqoriligi o'ta muhim hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida yoshlarda munosabat va muloqot madaniyatini shakllantirishning ahamiyati borasida shaxsiy faollik va faoliyat to'g'risida gapirmoqchimiz. Chunki, shaxsning shakllanishida shaxsiy faoliyat muhim o'rin tutadi. Faoliyatning turlarini kishi hayot tarzining jabhalari bo'yicha bir necha o'nlab xilini sanash mumkin. Lekin sayi-harakatlar maqsadi, amalga oshirish usullari va natijalariga qarab guruhlashtirsak, uch katta guruhni ko'rishimiz mumkin: uyin faoliyati, o'quv - o'rganish faoliyati, mehnat faoliyati. Faoliyatning bu turlarida umumiy bo'lgan motiv, maqsad, natija, bilim, malaka, ko'nikma singari jarayonlarning barchasini o'ziga xos shaklda uchratiladi.

Hayotining birinchi yillardayoq bolada faoliyatning oddiy shakllarini o'zlashtirishi uchun dastlabki shart-sharoitlar tarkib topa boshlaydi. Ulardan birinchisi o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin faoliyatning o'ziga xos tub xususiyati bo'lib, uning maqsadi o'zining yordamida muvaffiq bo'linadigan amaliy natijalarga erishishdan emas, balki amalga oshiriladigan faoliyatning o'zidan iboratdir. Bola o'yin faoliyatida ilk marotaba muomala va munosabatga duch keladi.

Bola o'z tajribasida qurol-buyumlar bilan bir vaqtning o'zida boshqa turdagi buyumlar – o'yinchoqlarni ham uchratadi. O'yinchoqlarini ishlatishning insoniy usuli - o'yin, ya'ni ular yordamida allaqanday boshqa, haqiqiy buyumlar va harakatlarni ifoda etishdir. Uch yoshdan boshlab buyumlarga bo'lgan munosabat odamlarning buyumlarga nisbatan funksiyalari sifatida namoyon bo'la boshlaydi. Rolli o'yinlar paydo bo'ladi. Rolli o'yinlarda bola katta yoshdagi kishilarning o'zi kuzatgan ijtimoiy funksiyalarini, ularning shaxs sifatidagi xulq-atvorini aynan takrorlaydi. (qo'g'irchog'ini «ovqatlantiradi, uxlatadi, u bilan gaplashadi»). Bolaning tajribasi ortgan sari maishiy ma'ruzaga oid ma'ruzalar («Ona», «tarbiyachi», «kino», «bolalar bog'chasi», «magazin» va h. o'yinlarni o'ynay boshlaydi) ishlab chiqarishga oid ma'ruzalar (uchuvchi, kosmonavt, zavod) va so'ngra ijtimoiy, siyosiy («urish», «namoyish») bilan, syujetlar bilan boyita boradi. Bu jarayonlarning barchasida bolada muomala va munosabat shakllanib boradi.

Bola vrach bo'lib o'ynarkan, o'zini xuddi «vrach kabi» tutadi. U qalamni xuddi stendoskop singari ushlaydi, qo'g'irchoqni yotqizayotib, boshini chayqab qo'yadi va «Senga ukol qilish kerak ekan» deydi va h. Uning harakatlari mazkur paytda bola ishlayotgan buyumlar xossasi bilan emas, balki vrachning vazifalari to'g'risidagi tasavvurlar bilan boshqariladi. Bu o'ziga xos munosabatning shakllanishi hisoblanadi.

Bolaning ijtimoiy amaliy faoliyatining ko'pgina ko'rinishlari uning keyingi bosqichlarida paydo bo'ladi. Bularning deyarli hammasi o'rganish, tahlil qilish, maslahat olish singarilar bilan bog'liq. Bola «odamga aylanish» jarayonida qanday tajriba orttirgan bo'lsa, o'rganish faktlari, ya'ni tajribani o'zlashtirilishi hisoblanadi.

Subyektning o'rganishni o'ziga maqsad qilib olgan bunday o'ziga xos faoliyati ta'lim deb ataladi. U quyidagilardan tarkib topadi:

a) ideal va amaliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o'zlashtirilishi (bu jarayonning mahsuli - bilimlardir);

b) faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topadigan usullar va jarayonlarning o'zlashtirilishi (bu jarayon mahsuli-malakalardir);

v) qo'yilgan vazifa va ilgari surilgan maqsadga muvofiq keladigan usullar va jarayonlarni to'g'ri tanlash hamda nazorat qilish uchun ko'rsatilgan axborotdan foydalanish yo'llarining egallanishi (bu jarayon mahsuli - ko'nikmalar hosil qilinishidir).

Mehnat - bu ma'lum bir ijtimoiy foydali (yoki hech bo'lmaganda jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan) moddiy yoki ma'naviy mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat demakdir. Mehnat faoliyati - kishining yetakchi, asosiy faoliyatidir. Mehnat faoliyati kishining hayot kechirishini, boshqa turlar ustidan g'alaba qozonishini hamda tabiat kuchlari va boyliklaridan foydalanishini ta'min etadigan o'ziga xos turga oid xulq-atvor va munosabati deb hisoblanishi mumkin. Mehnat faoliyati odamlar iste'mol qiladigan buyumlarni ishlab

chiqarishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, kishilarning mehnat faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hisoblanadi.

Odamning faoliyati odamlar jamoasida shakllanadi. Shunday qilib, individning shaxs bo'lib kamol topishida uning faoliyat turlarini o'zlashtirishida, boshqacha qilib aytganda odam bo'lib yetishuvida odamlar jamoasi, odamning odamlar ichida yashashi shart ekanligi shundan ham aniq va yaqqol ko'rinadi. Bu borada ham muomala va munosabat o'z o'zidan shakllanadi.

Shaxs tarbiyasida asosiy o'rinlardan birini muloqot va munosabat egallaydi.

Bugungi kunda respublikamiz o'smir-yoshlarida noo'rinmuomala va munosabatlarning namoyon bo'lishini oldini olishga doir bir qator tadbirlarni amalga oshirishni tavsiya etamiz:

- Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganlaridek, ta'lim muassasalarini avvalo tarbiya o'chog'iga aylanishini ta'minlash, o'smir-yoshlarda shakllantirilishi lozim bo'lgan muloqot va munosabat qadriyatlarining yagona meyorlarini va uni joriy etish usullarini ishlab chiqish;

- Jamiyatda yagona qadriyatlar tizimini shakllantirish, ayniqsa diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligiga erishish, ushbu qadriyatlarni o'smir-yoshlar tomonidan to'g'ri anglanilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

- Komil inson omilida oila omilining yuksak ahamiyatini e'tiborga olgan holda, oilaviy tarbiyani tashkil etish va oilaviy tarbiya jarayonlariga ta'sir etish mexanizmlarini shakllantirish;

- Respublikamizda amalga oshirilayotgan komil insonni tarkib toptirish konsepsiyasining muhim tarkibiy elementlaridan biri sifatida, o'smir-yoshlarda muomala madaniyatini shakllantirilishiga ko'proq e'tibor qaratish;

- O'smir-yoshlarning bo'sh vaqtlarini asosan televizor ko'rish bilan o'tkazayotganliklarini e'tiborga olgan holda, ma'naviy qadriyatlarni singdirishda televideniye va radiodan foydalanishning umumdavlat miqyosidagi yagona tamoyillarini ishlab chiqish;

- Keyingi vaqtlarda kitob mutolasi va kitobxonlik darajasining pasayib ketayotganligini e'tiborga olgan holda, butun jamiyatda mutolaa jarayonlarini rag'batlantirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish, o'quvchi-yoshlarni kutubxonalarga jalb qilinishiga erishish;

- Mutolaa jarayonlarini faollashtirishda yangi informatsion texnologiyalar, xususan INTERNET tizimlaridan foydalanish asoslari ishlab chiqilishi;

- Kelgusida informatsion globallashtirishning chuqurlashishini e'tiborga olgan holda informatsion xavfsizlik tizimlarini yaratish davomida o'smir-yoshlarni ham turli informatsion xurujlardan muhofazalashni nazarda tutish;

- Rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda o'smir-yoshlarda turli muammoli, ziddiyatli va ruhiy inqiroz holatlaridan chiqib olishlariga ko'maklashuvchi alohida markazlar va xizmatlar tashkil etish;

- O'tish davri iqtisodiyotida o'smir-yoshlarning ishlab chiqarishga tobora ko'proq jalb qilib borilayotganligini e'tiborga olgan holda, ular mehnatini muhofaza qilishning, shuningdek o'smir-yoshlarning mehnat bilan band bo'lishining huquqiy-tashkiliy asoslarini ishlab chiqish;

- Islohatlar davrida madaniy muassasalardagi yetishmovchilik holatlarni e'tiborga olgan holda, o'smir-yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalyotga joriy etish;

- O'smir-yoshlarning chet ellardagi tengdoshlari bilan keng munosabatlar o'rnatishlariga, yoshlar jamoat tashkilotlarining chet ellardagi yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik qilishlariga, xalqaro integratsiyalashuvlariga imkoniyat yaratuvchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

O'zbekiston avlodlari barkamol, yoshlari shijoatkor va bilimdon yurt, shu yurtning kelajagini buyuk etish bugungi yoshlar tarbiyasi bilan qanday shug'ullanishimizga bog'liq. Kelajak – farzandlarimizniki, farzadlarimiz-bizniki. Demak, baxtli kelajak uchun hammamiz mas'ulmiz.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T. O'zbekiston. 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T., Adolat., 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining aholi uchun yuridik ma'lumotnoma № 1-6. T.,Adolat, 1996.
4. Karimov I.A. Tanlangan yo'limizning to'g'riligiga ishonchimiz komil.//Xalq so'zi.-1996.-7mart
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida. / Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-T.:O'zbekiston, 1996.-B.271
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari./Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida: T.6.-T.:O'zbekiston.,1998. -B.125.
7. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: 2000. - B.9.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Abdulhakim Shar'iy Burxoniddin Marg'inoniy: “Al-Hidoya”,//Jamiyat va boshqaruv. 1998.
- 10.Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar,- Tanlangan asarlar. T.:Fan, 1968.- B.236.
11. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -T.: Ma'naviyat, 1998.
12. Yusupov E, Ismoilov F. Inson odobi bilan. T.: O'zbekiston, 1983.
13. Shibutani T. Ijtimoiy psixologiya. T.: O'zbekiston, 1992.
14. Liontyev A.N. Psixika taraqqiyotidan ocherklar. -T.: Ma'naviyat, 1998.
15. Lombrozo CH. Jinoyat, uning sabablari va davlash usullari. -T.: Ma'naviyat, 1998.
16. Al Buxoriy. Hadislar to'plami. ,- Tanlangan asarlar. T.:Fan, 1968.
17. Rizouddin Bin Faxruddun. Oila. -T.: Ma'naviyat, 1996.
18. G'oziyev E. Muomala psixologiyasi. -T.: Ma'naviyat, 2001.
19. Anikiva N.P. Jamoada ruhiy muhit. -T.: Ma'naviyat, 2002.
- 20.Yusupov E. Yoshlarning ma'naviy kamoloti. T.: O'zbekiston, 1995.

21. Xolmatova M.X. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sogʻlom avlod tarbiyasi. T.Oʻzbekiston, 2000.
22. Imomnazarov M. Milliy maʼnaviyatimiz nazariyasiga chizgilar. -T.: Sharq, 1998.
23. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. T.: Yozuvchi, 1996.
24. Mavlonova R. Toʻrayeva O. Pedagogika. -T.: Oʻqituvchi, 2010.
25. Shayxova X, Nazarov Q.N. Umuminsoniy qadriyatlar va maʼnaviy kamolot. -T.: Fan, 1992.
26. Musurmonova O. Oila jamiyat poydevori. // Jamiyat va boshqaruv, 1999.
27. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya I-tom, poklanish, Bola tarbiyasini boshlanishi, Sharq. Toshkent-2008. -B.214.
28. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya-III-tom, xulqlanish, farzand haqlari, Sharq. Toshkent-2008. -B.317.
29. Sharopov J. Oilaning huquqiy barqarorligi jamiyat farovonligi asosi, T.:2010. - B.47.
30. Yunusov. A Oʻsmir meyorini buzsa... Toshkent-2008.
31. Abzalov E.M. Yoshlar muammosi va huquqiy madaniyat. T. 2000.
32. Joʻrayev T. Oʻsmirlik xususiyatlari. // Sogʻlom avlod uchun. 1997. №3-4.
33. Imom ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). –T.:Oʻzbekiston. 1009.
34. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994.
35. Qurʼoni karim (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). “CHoʻlpon”, 1992.

Internet materiallari

1. www.edu.uz
2. www.ziyo.uz
3. www.ifap.ru